



CHEVROLET EQUINOX PHEV ACTIV



ELEKTRIK XARAKTER. CHEGARASIZ ERKINLIK.

Chevrolet Equinox PHEV – elektromobil dinamikasi uzoq safarlar erkinligi bilan uygʻunlashgan yangi avlod shahar krossoveridir. Soʻnggi avlod PHEV quvvat tizimi 1.5T turbomotori va elektromotorni ikki bosqichli DHT gibrid transmissiyasi bilan birlashtiradi: umumiy quvvat – 272 kW (369 ot kuchi), aylantiruvchi moment esa – 565 Nm.

Komplektatsiyaga qarab, faqat elektr quvvatida yurish zaxirasi 80 yoki 120 km ni tashkil etadi. Bu kundalik safarlarning aksariyatini deyarli yoqilgʻi sarflamasdan amalga oshirish uchun yetarli. 1 000 km dan ortiq umumiy yurish zaxirasi esa uzoq masofalarga safar qilishdagi barcha cheklovlarni bartaraf etadi.



EKSTERYER

AMERIKACHA XARAKTER – YANGICHA TALQINDA

Equinox Chevrolet'ning yangi dizayn tilida yaratilgan bo'lib, unda klassik amerikacha qudrat dekonstruktivizm geometriyasi bilan uyg'unlashadi. 4 653 × 1 902 × 1 728 mm o'lchamdagi keng kuzov va 2 730 mm g'ildirak bazasi avtomobilni o'rta o'lchamli krossoverlar segmentining yuqori qatoriga olib chiqadi. Bo'rtma kapot, kuzov yon tomonlaridagi tarang va muskulli chiziqlar hamda brendga xos to'rtburchak g'ildirak arkalari – Chevrolet SUV'larining taniqli dizayn kodidir.

ACTIV versiyasi – vazmin va aniq xarakter ifodasi. Avtomobil uch xil kuzov rangida taqdim etiladi: qora, marvarid-oq va to'q kulrang. Maxsus ACTIV shildiklari hamda ushbu klassda kam uchraydigan All-season barcha mavsumga mo'ljallangan shinalar avtomobilni shahar oqimida ajratib turadi. Radiator panjarasining faol jalyuzilari aerodinamikani yaxshilaydi, tomdagi reylinglar esa qo'shimcha bagaj boksini o'rnatish imkonini beradi.

Tom reytinglari




LED optika

Radiator panjarasining
faol jalyuzilari

Eksklyuziv ACTIV uslubi

Umumiy o'lchamlar va siluet:
4 653 × 1 902 × 1 728 mm, g'ildirak bazasi - 2 730 mm

All-season barcha mavsumga
mo'ljallangan shinalar - 235/55 R19



Цвета кузова: тёмно-серый, чёрный, жемчужно-белый



19" yengil qotishmali disklar



Ochilib-yopiladigan panoramali lyuk



INTERYER

HAR KUN UCHUN RAQAMLI SALON

Equinox saloni to'liq qayta ishlangan. Interyer markazida 11 dyuymli raqamli asboblari paneli va 11,3 dyuymli sensorli multimedia ekranidan iborat yaxlit, "suzib turgandek" ko'rinadigan qo'shaloq display joylashgan.

Turbina uslubidagi havo deflektorlari, charm rul, o'rindiqlardagi ikki rangli kontrast choklar va kashtalar hamda 121 xil rangga ega ambient yoritish kayfiyatga mos muhit yaratish imkonini beradi. ACTIV versiyasi o'rindiqlari eko-charm va sun'iy zamsh kombinatsiyasi bilan qoplangan. 1,9 metrdan ortiq kuzov kengligi va ikkinchi qatordagi tekis pol yo'lovchilar uchun o'z klassidan yuqori darajadagi kenglikni ta'minlaydi. 648 litrli bagaj bo'limiga yettita 20 dyuymli chamadon sig'adi. Ikkinchi qator o'rindiqlari buklanganda esa uning hajmi 1 619 litrgacha oshadi – bu yirik jihoz va anjomlarni tashish uchun ham yetarli.

ACTIV o'rindiqlari qoplamasi:

eko-charm va sun'iy zamsh.
O'rindiqlardagi ikki rangli kontrast choklar va kashtalar.



Bagaj bo'limi hajmi:

648 l / ikkinchi qator
buklanganda 1 619 l



Har bir qatorda keng makon:

kuzov kengligi 1,9 metrdan ortiq,
ikkinchi qatorda tekis pol



Qo'shaloq display:

11" raqamli asboblari paneli
+ 11,3" sensorli multimedia ekrani



Charm multifunksional rul



Ambient yoritish - 121 xil rang



Turbina uslubidagi
havo deflektorlari

The image shows the front interior of a modern vehicle, likely a Chevrolet. The dashboard is light-colored with a large central infotainment screen displaying a car's image. The steering wheel is black with the Chevrolet logo in the center and silver accents. The front seats are upholstered in a light-colored, textured fabric. The center console has two cup holders and a gear shifter. The overall design is sleek and contemporary.

QULAYLIK

HAR BIR DETALIGACHA O'YLANGAN QULAYLIK

Elektr sozlamalariga va holatlarni xotirada saqlash funksiyasiga ega haydovchi o'rindig'i, haydovchi hamda old yo'lovchi uchun 4 yo'nalishda sozlanadigan bel tayanchi, old o'rindiqlarni isitish va ventilyatsiya qilish funksiyalari - har qanday mavsumda qulay boshqaruvni ta'minlaydi. Salonda jami 25 ta buyum saqlash joyi mavjud. 6,7 litr hajmdagi markaziy tirsakqo'ygich bo'limiga planshet ham sig'adi, diametri 80 mm bo'lgan stakan ushlagichlar esa turli o'lchamdagi idishlar uchun mos keladi.

ANC faol shovqinni kamaytirish tizimi

yo'l shovqinini pasaytiradi, rul ostidagi elektron uzatma selektori esa markaziy konsolda katta saqlash bo'limi uchun qo'shimcha joy yaratadi.



Har ikkala old o'rindiqning elektr sozlamalari



Haydovchi o'rindig'i sozlamalarini xotirada saqlash funksiyasi



Old o'rindiqlarni isitish



Rul ostidagi uzatma selektori



4 yo'nalishda sozlanadigan bel tayanchi
(haydovchi va old yo'lovchi uchun)



Old o'rindiqlar ventilyatsiyasi



Salonda buyumlar uchun 25 ta saqlash bo'limi

XAVFSIZLIK

360° HIMOYA. HAR BIR KILOMETRDA ISHONCH.

Equinox PHEV ACTIV L2 darajadagi haydovchiga ko'maklashuvchi tizimlar majmuasi va faol xavfsizlik texnologiyalari bilan jihozlangan. Yuqori aniqlikdagi to'rtta kamera asosidagi 360° atrofni ko'rish tizimi tor hovli va joylarda ko'rinmas zonalarni kamaytiradi. Old va orqa parkovka datchiklari hamda APA yarim avtomatik parkovka tizimi esa eng murakkab manevrlarni bajarishda yordam beradi. Adaptiv kruiz-kontrol barcha tezlik diapazonida ishlaydi va tirbandlikda avtomobil oqimiga avtomatik ravishda moslashadi. Eshiklarni ochish vaqtida ogohlantirish tizimi orqa tomondan yaqinlashayotgan piyoda va velosipedchilarni kuzatib, to'qnashuv xavfini kamaytiradi. Avtomatik favqulodda tormozlash, ko'rinmas zonalarni nazorat qilish, harakat qatori markazida ushlab turish va yo'l belgilarini aniqlash tizimlari standart jihozlar qatoriga kiradi.



Ultium platformasi standarti

Suyuqlik bilan sovitish va isitish tizimiga ega batareya Ultium platformasi standartlari asosida ishlab chiqilgan. Faol va passiv xavfsizlikning boshqa tizimlari quyidagi ro'yxatda keltirilgan.



L2 darajadagi haydovchiga ko'maklashuvchi tizimlar majmuasi



6 ta xavfsizlik yostiqchasi + yon parda xavfsizlik yostiqchalari



Avtomatik favqulodda tormozlash



ABS + EBD + BA + TCS + ESP



360° atrofni ko'rish kameralari



Ko'rinmas zonalarni monitoring qilish (BSD)





- Old tomondan to'qnashuv haqida ogohlantirish
- Orqa tomondan to'qnashuv haqida ogohlantirish
- Harakat qatorida ushlab turish va qator markazida harakatlanish tizimi
- Yo'l belgilarini aniqlash
- Adaptiv kruiz-kontrol
- Eshik ochilganda xavf haqida ogohlantirish
- Shinalardagi bosimni nazorat qilish



Auto Hold avtomatik ushlab turish tizimi
va elektron to'xtash tormozi (EPB)



Tepalikka chiqishda va pastlikka
tushishda yordam tizimlari



Orqaga chiqishda ko'ndalang harakat
haqida ogohlantirish



ISOFIX bolalar o'rindig'i
mahkamlagichlari



Avtomatik parkovka
tizimi (APA)



Parkovka datchiklari: old tomonda
6 ta / orqa tomonda 6 ta

A photograph showing the interior of a car's trunk. The trunk is open, revealing a dark interior with a silver metal bar across the top. In the center, two large, hard-shell suitcases are stacked vertically. The top suitcase is silver, and the bottom one is a metallic copper or bronze color. To the left of the suitcases is a large, brown leather duffel bag with two handles. To the right is a long, narrow, grey and white striped bag. The background shows the car's rear seats and a view through the rear window of a city street with traffic lights and buildings.

FUNKSIONALLIK

SHAHAR UCHUN HAM, SHAHARDAN TASHQARI SAYOHATLAR UCHUN HAM TAYYOR

Elektr yuritmalı bagaj eshigi qo'llar band bo'lganida ayniqsa qulay: uni oyoq harakati bilan kontaktsiz ochish mumkin, ochilish balandligi esa xotirada saqlanadi.

3,3 kW quvvatga ega V2L tashqi elektr ta'minoti funksiyasi avtomobilni piknik, baliq ovi yoki kemping vaqtida mobil elektr manbaiga aylantiradi. Boshqa amaliy imkoniyatlar quyidagi ro'yxatda keltirilgan.

- 
- Bagaj eshigining elektr yuritmasi
 - Bagaj eshigini oyoq harakati bilan kontaktsiz ochish
 - Bagaj eshigining ochilish balandligini xotirada saqlash




Kalitsiz kirish va dvigatelni
tugma orqali ishga tushirish



Orqa o'ng tomonda joylashgan
quvvatlash porti



Elektr rejimida harakatlenganda
piyodalar uchun ovozli ogohlantirish



3,3 kW quvvatli V2L
tashqi elektr ta'minoti



Haydash rejimlari:
Sport / Eco / Normal

TEKNOLOGIYALAR

BORTDAGI INTELLEKT

11" + 11,3" o'lchamdagi qo'shaloq display 2000 × 970 piksel aniqlikka ega bo'lib, bir milliard rang tusini qo'llab-quvvatlaydi va premium darajadagi planshetga xos tasvir sifatini ta'minlaydi. 5G aloqa va Apple CarPlay smartfonni qulay ulash hamda safar davomida odatiy funksiyalardan bemaol foydalanish imkonini beradi.



TEXNIK XUSUSIYATLAR / DVIGATEL VA DINAMIKA

QUVVAT – QUVVATLANISH DARAJASIGA BOG‘LIQ EMAS

Gibrid tizim P1+P3 sxemasi asosida qurilgan: elektromotorlardan biri 1.5T turbomotori bilan birgalikda generator sifatida ishlaydi, ikkinchisi esa g‘ildiraklarni bevosita harakatga keltiradi. Yo‘l sharoitiga qarab tizim ketma-ket va parallel ishlash rejimlari o‘rtasida avtomatik tarzda almashadi.

Sun’iy intellekt elementlariga ega uch bosqichli boshqaruv algoritmi har bir vaziyat uchun optimal ish rejimini tanlaydi.

Chevrolet Equinox PHEV

Chevrolet Equinox PHEV elektr quvvatida yurish zaxirasi bilan farqlanuvchi ikki komplektatsiyada taklif etiladi – Activ 80KM va Activ 120KM. Kuch qurilmasi va yurish qismining boshqa texnik ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

KUCH QURILMASI



Kuch qurilmasi turi:
quvvatlanadigan gibrid PHEV (P1+P3)



Dvigatel:
1,5 l, turbo, 1 498 sm³, 132 kW (179 ot kuchi) / 250 Nm




Elektrodvigatel:
sinxron, 140 kW (188 ot kuchi) / 315 Nm



Umumiy quvvat:
272 kW (369 ot kuchi) / 565 Nm



Uzatmalar qutisi:
2 bosqichli gibrid DHT



0–100 km/soat tezlanish: 7,0 soniya
Maksimal tezlik: 180 km/soat



BATAREYA VA YURISH ZAXIRASI




Batareya: litiy-temir-fosfat (LFP), suyuqlik bilan sovitish va isitish tizimiga ega, Ultium platformasi standartlari asosida - 17 kW·soat (Activ 80KM) / 24 kW·soat (Activ 120KM)



Yonilg'i sarfi: 1,03 l/100 km (WLTC);
Batareya quvvati tugagan holatdagi
yonilg'i sarfi: 6,13 l/100 km



Yonilg'i baki: 46 l




Elektr quvvatida yurish zaxirasi:

80 km gacha (Activ 80KM) / 120 km
gacha (Activ 120KM), WLTC



Umumiy yurish zaxirasi:


1 000 km dan ortiq - batareya to'liq quvvatlangan
va yonilg'i baki to'liq bo'lgan holatda




V2L tashqi elektr ta'minoti:

3,3 kW

O'LCAMLAR VA YURISH QISMI



O'lchamlar (U×K×B):
4 653 × 1 902 × 1 728 mm



G'ildirak bazasi:
2 730 mm



Shinalar:
235/55 R19



O'rindiqlar soni:
5



Osma: old - McPherson,
orqa - ko'p richagli

Tormozlar: old - ventilyatsiyali
diskli, orqa - diskli

Bagaj bo'limi hajmi: 648 l / ikkinchi
qator buklanganda 1 619 l

KOMPLEKTATSIYALAR VA NARXLAR

O‘Z EQUINOX’INGIZNI TANLANG

Equinox PHEV Activ 80KM

17 kW·soat batareya, elektr quvvatida
80 km gacha yurish zaxirasi

Equinox PHEV Activ 120KM

24 kW·soat batareya, elektr quvvatida
120 km gacha yurish zaxirasi

Narxlarni O‘zbekistondagi Chevrolet rasmiy
dilerlaridan aniqlashtirishingiz mumkin.





“UzAuto Motors” AJ, O‘zbekiston Respublikasi, 100060,
Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 13.
Email: info@uzautomotors.com
Sayt: www.uzautomotors.com, www.chevrolet.uz
Call-markaz: +998 (78) 141-77-77

Ushbu broshyurada keltirilgan ma’lumotlar nashrga topshirilgan vaqtda to‘g‘ri bo‘lgan. Biroq “UzAuto Motors” kompaniyasi mahsulotlarni uzluksiz takomillashtirish va yaxshilash siyosatiga amal qilgani sababli, ushbu broshyurada tasvirlangan modellarning texnik xususiyatlari, ranglari va komplektatsiya elementlarini istalgan vaqtda qo‘shimcha ogohlantirishsiz o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Modellarning rang va komplektatsiya kombinatsiyalari ularning amalda mavjudligiga qarab taqdim etiladi. Batafsil ma’lumotni Chevrolet rasmiy dilerlik markazlaridan yoki www.chevrolet.uz saytida olishingiz mumkin.